



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Tolipova Tursuntosh Karshiyevna¹, Muminova Lola Davronovna²

¹Samarqand VXTMOHM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim
metodikalari kafedrası katta o'qituvchisi

²Samarqand shahar 27-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya




Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish bo'yicha o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, diqqatini jamlash maqsadida qo'llash mumkin bo'lgan didaktik o'yinlar tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar

Qiziqarli, qafas, bayroqcha, qafas, quyoncha, tulkicha, eng yaxshi hisobchi, jo'ja, misol.

“Hayvonchalarni tutqunlikdan qutqarish” o'yini.

Navbatdagi tavsiya qilmoqchi bo'lgan qiziqarli o'yinimiz. Bunda qafasga tushib qolgan hayvon bolalarini misol yechish orqali qutqarish bo'lib, har bir to'g'ri ishlangan misol bitta hayvonchani ozod qiladi. Qafasda uchta quyoncha, uchta tulkicha va uchta ayiqchalar tushib qolgan.





1-qator quyochalarni, 2-qator tulkichalarni va 3-qator ayiqchalarni ozod qilishlari shart. Barcha misollar to'g'ri ishlanganini hayvon bolalari qafasdan ozod bo'lib, o'rmonga ketganidan bilamiz. O'yin musobaqa tarzida o'tkaziladi.

"Zukkolar" o'yini.

O'yinning maqsadi: Ko'paytirish va bo'lishga doir amallar yechish malakalarini mustahkamlash.

O'yinning jihozi: Uchta bayroqcha.

O'yinning borishi: Qatorlararo o'tkaziladi.

Qatorlar nomi doskaga yoziladi va o'quvchilar soni teng bolinadi. O'qituvchi har bir qatorning oxirgi partadagi o'quvchiga bayroqchani beradi. O'qituvchi son aytadi.

M: 1-qatorga -6 soni, 2-qatorga -4 soni, 3-qatorga -5 soni. Bayroqchalarni olgan o'quvchi $6 \times 2 = 12$ deb bayroqchani oldingi partadagi o'quvchiga uzatadi.

O'quvchilar natija qaysi son bilan tugasa shu son bilan boshlanadigon ifoda tuzishi kerak bo'ladi.



$$6 \cdot 2 = 12 \quad 12 \cdot 2 = 24 \quad 24 : 3 = 8 \quad \dots\dots$$



$$4 \cdot 5 = 20 \quad 20 : 2 = 10 \quad 10 : 2 = 5 \quad \dots\dots$$



$$5 \cdot 14 = 70 \quad 70 : 10 = 7 \quad 7 \cdot 5 = 35 \quad \dots\dots$$

"Eng yaxshi hisobchi" o'yini.

Bu o'yinning bir necha hili bor.

1. O'quvchilardan biri oldinga chiqib hisobchi bo'lib, o'quvchilar hisobiga misollar beradi. U misollarni og'zaki yechadi.

Agar hisobchi biror misolni yecha olmasa yoki noto'g'ri yechsa uning o'rniga bu misolni bergan o'quvchi chiqadi. O'quvchilarning qaysi biri hamma misolni yechsa, shu o'quvchi "Eng yaxshi hisobchi" bo'ladi.

2. O'qituvchi doskaga yonma-yon bir necha misol yozadi. Yechish uchun teng kuchli ikki o'quvchi chiqariladi. Ularga misollarni ishlashga buyuriladi. O'quvchilar bu misollarni ikki tomondan ishlab o'rtasiga kela boshlaydilar.

Agar o'rtasida uchrashsalar "hisobchi" teng kuchli bo'ladilar. Ulardan qaysi biri ko'proq misol yechib ulgursa o'sha o'quvchi eng yaxshi hisobchi bo'ladi.

Masalan: $20 \cdot 3$, $60 : 3$, $80 : 4$, $70 \cdot 3$, $80 \cdot 4$, $7 \cdot 3$, $8 : 4$, $20 \cdot 4$ kabimisollarniqaydagichayozibsinfdagio'quvchilarnitartibbilanchiqarishmumkin.

O'yin jihozi: «-», «+» belgilari.

O'yinning borishi:




O'qituvchi masalalarni o'qiydi, o'quvchilar esa masalani qaysi amal bilan yechish kerak bo'lsa, o'sha "ishorani" ko'rsatadilar.

Masala. Dilshodning 3 ta qora va 6 ta yashil qalami bor. Hammasi bo'lib nechta qalam borligini qaysi amaldan foydalanib topamiz?

O'quvchilar «+» ni ko'rsatdilar. Masala og'zaki yechiladi.

Masala.

Nigorada 6 ta jo'ja bor edi, 4 tasini do'stiga berdi. Nigorada nechta jo'ja qoldi?



Mustahkamlash: O'qituvchi «+», «-» qo'shish, ayirish belgilarini qachon qo'yilishini so'rab ularni bilimini mustahkamlaydi.

Xulosa

Yuqorida qayd etilgan ishlar natijasida matematik bilimlarni berish jarayonini takomillashtiruvchi yo'nalishlarni amalga oshirish metod va vositalarni uzluksiz matematik ta'lim tizimi (maktab va maktabgacha muassasalar) amaliyotiga joriy qilinishi ta'minlanadi; ilgor pedagogik texnologiyalarni qo'llash uchun ishlab chiqiladigan o'quv – metodik, didaktik tarqatma materiallar ,metodik qo'llanmalar uzluksiz matematik ta'lim tizimi amaliyotiga joriy qilinadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Tal'at G'affarova. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogic texnologiyalar. Toshkent 2011.

2. Avlaev O.U., Jo'rayeva S.N., Mirzayeva S.R. Ta'lim metodlari. Toshkent . "Navro'z" nashriyoti, 2017-yil.